

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№7

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rirlari va ekologik ta'lif: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardonha	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Alikulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lif muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lif muassasalari o'rta sidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Optimizatsiya biznes-protsessov i modernizatsiya занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otoboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxy Saparmuxamedovich	
Aльтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorlarning yetishmasligi	74
Nabiiev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lif massasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurusulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	



RAQAMLI IQTISODIYOT VA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH

Abdullahayev Abdurauf

Andijon mashinasozlik instituti professori,

iqtisod fanlari doktori

Elektron pochta: abduraufabdullahayev679@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning korxonadagi boshqaruv darajasiga va oxir-oqibat korxonalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyati samaradorligi darajasiga ta'siri masalalari ko'rib chiqiladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish muammosi keng ko'lamli muammo bo'lib, nazariyotchilar va amaliyotchilarning doimiy e'tiborini tortadi. Olimlar va mutaxassislar tadqiqot maqsadlariga qarab, ushbu tushunchani turlicha talqin qiladilar va shu nuqtayi nazardan qaraganda avvalo "buxgalteriya hisobini tashkil etish" terminologiyasiga aniqlik kiritilishi muhimdir. Maqolada yuqorida qo'yilgan masalalarga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari tahlil etilib muallifning bu boradagi qarashlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, boshqaruv darjasasi, xo'jalik, moliyaviy faoliyat, samaradorlik, buxgalteriya hisobini tashkil etish, xo'jalik operatsiyalari, buxgalteriya hisobining funksiyalari, xujjatlashtirish, hisob registrleri, schyotlar rejsasi, unifikatsiya, soliq bazasi, to'lov intizomi.

Abstract: This article explores the impact of accounting organization in agricultural enterprises on the level of managerial control and, ultimately, the effectiveness of economic and financial activities.

The issue of organizing accounting is multifaceted and continuously attracts the attention of both theorists and practitioners. Scholars and professionals interpret this concept differently depending on the objectives of their research, making it essential to clarify the term "organization of accounting" from the outset. The article analyzes the perspectives of both domestic and foreign researchers on the subject and presents the author's own views on these matters.

Keywords: accounting, management level, economic activity, financial activity, efficiency, organization of accounting, economic operations, accounting functions, documentation, accounting registers, chart of accounts, unification, tax base, payment discipline.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы влияния организации бухгалтерского учёта в сельскохозяйственных предприятиях на уровень управленческого контроля и, в конечном итоге, на эффективность хозяйственной и финансовой деятельности предприятий.

Проблема организации бухгалтерского учёта является многогранной и постоянно привлекает внимание как теоретиков, так и практиков. Учёные и специалисты трактуют данное понятие по-разному в зависимости от целей исследования, и с этой точки зрения важно прежде всего уточнить термин «организация бухгалтерского учёта». В статье проанализированы взгляды отечественных и зарубежных исследователей по вышеуказанным вопросам, а также представлены авторские подходы.

Ключевые слова: бухгалтерский учёт, уровень управления, хозяйственная деятельность, финансовая деятельность, эффективность, организация бухгалтерского учёта, хозяйственные операции, функции бухгалтерского учёта, документирование, учётные регистры, план счетов, унификация, налоговая база, платёжная дисциплина.

KIRISH

Bozor munosabatlari va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida respublika qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki buxgalteriya hisobini tashkil etish darjasasi, avvalo, korxonadagi boshqaruv sifatiga hamda oxir-oqibatda korxonalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, korxona va tashkilotlarda, jumladan, qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi keng ko'lamli muammo bo'lib, nazariyotchilar va amaliyotchilarning doimiy e'tiborini tortib keladi. Bu sohada faoliyat yuritayotgan olimlar va mutaxassislar tadqiqot maqsadlariga qarab ushbu tushunchani turlicha talqin qiladilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, avvalo "buxgalteriya hisobini tashkil etish" terminologiyasiga aniqlik kiritish muhimdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Ko'pgina tadqiqotchilar "tashkil etish" tushunchasi o'rniiga "buxgalteriya hisobini oqilona tashkil etish" atamasidan foydalanish lozim deb hisoblaydilar va uni xo'jalik operatsiyalari ustidan aniq, o'z vaqtida va to'liq nazorat qilishda sarflanadigan mablag'lar hamda mehnat xarajatlarining eng kam darajada bo'lishi bilan bog'laydilar (2, 22-bet; 3, 196-bet; 6, 278-bet).

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar "buxgalteriya hisobini oqilona tashkil etish"ni boshqaruvni axborot bilan ta'minlash jarayoni bilan bog'laydilar (4, 40-bet; 5, 13-bet).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobining assosiy funksiyasini "boshqaruvni axborot bilan ta'minlash maqsadida minimal mehnat va mablag'lar sarflangan holda xo'jalik operatsiyalari ustidan o'z vaqtida, to'liq va ko'p tomonlama nazoratni amalga oshirishdan iborat" deb ta'riflash mumkin.

Maxsus adabiyotlarda buxgalteriya hisobining tizim sifatidagi turli ta'riflari mavjud. Jumladan, AQSHda buxgalteriya hisobiga oid adabiyotlarda buxgalteriya hisobi tizimi buxgalteriya xodimlari, hisob metodologiyasi va registrlar kabi toifalarни o'z ichiga olishi qayd etilgan (7, 19-bet). Amerika iqtisodchilari nuqtayi nazariga ko'ra, korxonalarda buxgalteriya hisobining assosiy vazifasi — hujjatlardagi mavjud iqtisodiy ma'lumotlarni to'plash, ularni jamlash va keyinchalik kompaniyalarning faoliyati hamda moliyaviy holati haqida hisobot tayyorlashdan iboratdir (7, 20-bet).

A. Eytixovnenning bu boradagi talqini o'ziga xos va dolzarb bo'lib, unda buxgalteriya hisobi ko'plab bog'lamchilar orqali tashqi muhit bilan bog'langan quyi tizimlardan tashkil topgan miqdoriy ma'lumotlar tizimi sifatida talqin qilinadi (8, 22-bet).

Buxgalteriya hisobi tizimini axborot nuqtayi nazaridan tahlil etgan L. Z. Shneyzman uning modelini "xo'jalik faoliyati faktlari to'g'risidagi ma'lumotlar va buxgalteriya hisob shakllarini buxgalteriya hisobi va hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun buxgalteriya xodimlari, texnik vositalar hamda uslubiy apparat uyg'unlashgan holdagi yig'indisi" sifatida tavsiflaydi (10, 22-bet). Ushbu modelda buxgalteriya hisobi tizimi o'zaro bog'liq elementlarning muhim to'plami (ma'lumotlar, buxgalteriya hisobining shakli va metodologiyasi, buxgalteriya hisobi vositalari, buxgalteriya xodimlari)dan iboratdir. Biroq bunda tizimni tashkil etuvchi elementlarni tanlashning asosi va mexanizmi ko'rsatilmagan. Axborot aspektining ustunligi tizimning boshqa talqinlarida ham uchraydi. Masalan, ayrim mutaxassislar, jumladan, Belov N. G. buxgalteriya hisobi tizimiga "xalq xo'jaligi rejalarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish jarayonida zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilishga tayyorlash maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining harakatlanishi va o'zgarishi jarayonlari" sifatida qaraydi (10, 47-bet).

Rossiyalik iqtisodchi olimlar V. F. Paliv va Ya. V. Sokolov fikriga ko'ra, "hisob tizimi" deganda korxonalarning xo'jalik faoliyatini boshqarish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi, o'zaro bog'liq schyotlarni kuzatish, o'Ichash va tasniflash tizimi tushuniladi (9, 279-bet).

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar, jumladan, A. M. Kuzminskiy, V. V. Sopko va E. N. Evstigneyev qarashlariga ko'ra, tizim o'zaro bog'liq elementlar sifatida emas, balki element tushunchasidan farqlanishi kerak bo'lgan "quyi tizim" tushunchasiga asoslanadi. Bu yondashuv tizimni vaqtidagi holatlar majmui, protsessual va funksional harakatlar majmui, aniq maqsadga erishish vositasi sifatida tushunishni nazarda tutadi (6, 96-bet).

Buxgalteriya hisobi tizimining tarkibi va mazmuni haqidagi qarashlarning xilma-xilligi, ularning diapazoni va argumentlar darajasidagi farqlari shuni ko'rsatadiki, bu tizimning shakllanishidagi murakkablik uning mazmunida emas, balki shakllanish asosida yotgan metodologik yondashuvlardadir. Xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning fikrlariga tayanib shuni ta'kidlash mumkinki, buxgalteriya hisob tizimiga axborot, bog'liqlik nazariyasi, kibernetik va tizimli yondashuvlar mavjud. Aynan tizimli yondashuvni asosiy nuqtaga aylantirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, buxgalteriya hisobi tizimi o'zining optimal tarkibiy qismlarini aniq belgilay olmayapti. Shu sababli, tizimning elementlari borasida sezilarli tafovutlar mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ko'tarilgan muammolar yuzasidan xorijiy va mahalliy mutaxassislarning sohaga oid adabiyotlarda chop etilgan qarashlari, ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar va amaliy ishlasmalar atroflicha tahlil qilinib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni asoslashda induksiya va deduksiya, taqqoslash, adabiyotlar tahlili kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalar amaliy faoliyati tahlili qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda quyidagi kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi:

qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining boshqaruvning zamonaviy talablariga mos kelmasligi;



korxonalarning buxgalteriya bo'limlarida joriy hisob va hisobotni tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan rejalar mavjud emasligi;

hujjatlashtirish va buxgalteriya registrlarining aniq tashkil etilgan tizimi hamda ish jarayonining to'liq jadvali mavjud emasligi;

hisob jarayonining murakkabligi, ayrim xo'jalik operatsiyalarining analitik hisobda asossiz takrorlanishi, keraksiz oraliq ma'lumotlarning talab etilishi, qishloq xo'jaligi korxonalari, ayniqsa, fermer xo'jaliklari uchun buxgalteriya hisobining rasmiy uslubiy asoslari mavjud emasligi;

hisobot davri davomida buxgalteriya ma'lumotlarining notejis aylanishi va uni qayta ishlash tizimining murakkabligi;

buxgalteriya funksiyalarining faqat tugallangan xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish, boshlang'ich hujjatlarni nazorat qilish, buxgalteriya registrlari va hisobot shakllarini tayyorlash bilan cheklanib qolishi;

korxonalarda buxgalteriya hisobini baholash tizimining yo'qligi va boshqa shu kabi kamchiliklar.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishning yuqori sifati — uning samaradorligi va ishonchliligi, shuningdek, har bir xodim uchun qulay bo'lgan soddalashtirilgan hisob shakllari va usullaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, korxonada buxgalteriya hisobining holatini baholashda asosiy mezonlar — taqdim etilayotgan ma'lumotlarning soddaligi, samaradorligi, to'liqligi va maqsadga muvofiqligidir.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda foydalanilayotgan hujjatlar oqimining kattaligi — o'tmishdagи amaliyotlarning merosidir. Bu esa iqtisodiy axborotni shakllantirish va uni boshqaruvsda qo'llashda sezilarli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi korxonalari hisobida foydalilanildigan boshlang'ich hujjatlar tizimini unifikatsiya qilish, soddalashtirish va qisqartirish asosida tartibga solish dolzarb masaladir. Biroq hozirgi vaqtida ko'plab qishloq xo'jaligi korxonalarida boshlang'ich hisobni yuritishda eskirgan shakllardan foydalanimoqda, zamonaviy shakllar esa umuman joriy etilmayapti. Bu holat buxgalteriya hisoboti sifati, xo'jalik faoliyati ustidan samarali nazoratni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunga asosiy sabab — sohada yuqori malakali mutaxassis kadrlar yetishmasligi, mavjud kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining yetarli darajada yo'ilga qo'yilmaganligidir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi yangi iqtisodiy munosabatlар iqtisodiy islohotlarning zaruriy elementi va rejali-ma'muriy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiy tizimiga o'tishning muhim shartlaridan biri sifatida buxgalteriya hisobini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tish jarayoni buxgalteriya hisobini ham moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki yangi boshqaruvin sharoitida vujudga keladigan muammolar va noaniqliklar — jumladan, yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'tasidagi hisob-kitoblardagi noaniqliklar, bozorni izlab topishdagi qiyinchiliklari, narxlarning keskin o'zgarishi kabi holatlar — samarali yechimni talab etadi. Bundan tashqari, yangi turdagи xo'jalik operatsiyalarining paydo bo'lishi, xususan, investitsiyalarning turli shakllari, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar, chet el valyutasidagi hisob-kitoblar, ko'chmas mulkni sotib olish va sotish, dividendlarni hisoblash va to'lash kabi muammolar ham mavjud.

Bunday sharoitda buxgalteriya hisobini tashkil etishda yangi faktlar va hodisalarni o'z vaqtida to'g'ri talqin qilish, ularni to'plash va qayta ishlashning samarali tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Rejali iqtisodiyot davrida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi — yuqori turuvchi vazirlik va idoralar, statistika va soliq organlari uchun axborot to'plash bilan cheklangan. Korxonaning o'zi esa ishlab chiqarishni rejashtirish, narx belgilash, xarid va ta'minot, xodimlarning ish haqi kabi masalalarni mustaqil hal eta olmagan. Korxonalar davlat mulkini boshqarishda faqat vositachi bo'g'in sifatida ishtirot etgan, buxgalteriya hisobi esa faqatgina faoliyatga doir raqamlarni aks ettirish bilan cheklangan. Davlat korxonaning yagona egasi va investori bo'lgan.

Bunday sharoitda buxgalteriya hisobotlari davlat topshiriqlarining bajarilishi, byudjetga ajratmalarning to'g'riligini nazorat qilish vositasi, shuningdek, statistik ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qilgan. Shunga ko'ra, buxgalteriya hisobiga quyidagi asosiy talablar qo'yilgan:

hisobni unifikatsiya qilish (ya'ni, bir xillikka keltirish);

davlat topshiriqlarining bajarilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish;

soliq bazasi va budgetga ajratmalarni to'g'ri hisoblash.

Bozor munosabatlari va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi prinsipial jihatdan butunlay yangi funksiyalarini bajarmoqda. Bu holat qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarishda yuzaga keladigan quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Birinchidan, bozor munosabatlari va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mulk shakllari o'zgarib, yangi mulkchilik turlari vujudga kelmoqda, davlat mulki esa uning turlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu esa korxonaga o'z mablag'larini kiritib, uning faoliyat natijalaridan manfaatdor bol'gan yangi mulkdorlar sinfining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.



Ikkinchidan, korxona raqobatda ustunlikka erishish hamda zarur moliyaviy natijalarini ta'minlaydigan boshqaruv qarorlarini izlashga majbur bo'ladi. Shu maqsadda u bozor kon'yunkturasini o'rganadi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, yetkazib beruvchilar va xaridorlarni topadi hamda narxlarni mustaqil belgilaydi.

Uchinchidan, byudjetdan moliyalashtirish va davlat tomonidan ajratiladigan kreditlar ko'pincha moliyaviy resurslarning asosiy manbai sifatida ko'rili sharoitida ham boshqa potensial investorlarning mablag'lari uchun ham raqobatga kirishadi.

Natijada, korxona bir tomonidan:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning natijalarini baholash uchun o'z vaqtida hamda asosli ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur;
- boshqa tomonдан esa, unga sarmoya kiritgan investorlarga tegishli va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish majburiyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, bozor munosabatlari va raqamlashtirish sharoitida ham korxonalar soliq to'lovlarining to'g'riligini tasdiqlovchi hisobotlarni davlat organlariga taqdim etish majburiyatini saqlab qoladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi korxonalar uchun nafaqat hisob va statistik funktsiyalarni bajaruvchi vosita, balki xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati haqida ma'lumotlar manbai sifatida ham maydonga chiqadi. Bu ma'lumotlar esa mablag'larni eng maqbul tarzda investitsiyalash bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini yuritish va uni takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning bugungi holati hali ham zamon talablariga to'liq javob bermaydi. Narxlarning erkinlashuvi, infliyatsiyaning yuqoriligi hamda raqamlashtirish sharoitida agrosanoat majmuasi korxonalarida yuzaga kelgan tarang moliyaviy holat bunga asosiy sabab bo'immoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, debtorlik qarzlarining yuqori salmog'i, ayrim hollarda shartnomalarning bajarilmasligini asos qilib, sabablar aniqlanmasdan bir tomonlama jarima va penyalarning qo'llanishi korxonalar uchun moliyaviy zararlarni keltirib chiqarmoqda va ularning iqtisodiy holatini tobora og'irlashtirmoqda. Natijada, fermer xo'jaliklarining moliyaviy ahvolini yaxshilash va to'lov intizomini mustahkamlash ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bunday sharoitda korxonalarda iqtisodiy va moliyaviy intizomni mustahkamlash, mulkni asrash, resurslar bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar tizimining muhim bo'g'ini — bu buxgalteriya hisoboti va hisobining yangi, standartlashtirilgan metodologiyasini joriy etish hisoblanadi.

Bozor munosabatlarning rivojlanishi, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, iqtisodiy mustaqillikning chuqurlashuvi va takomillashuvi — bularning barchasi buxgalteriya hisobi tizimini shakllantirishda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillardir.

Buxgalteriya hisobini shakllantirishga yondashuvlarni ishlab chiqishda quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega: buxgalteriya hisobining maqsadli funksiyasi, uning metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, buxgalteriya hisobi bilan bog'liq masalalarini hal etish darajasi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi tizimi korxonaning hisob siyosati bilan tartibga solinadi. Xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiq "hisob siyosati" atamasi quyidagicha ta'riflanadi: "molivaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun rahbariyat tomonidan qabul qilingan tamoyillar, asoslar, an'analar, qoidalar va tartiblar majmui". Amalda bir turdag'i xo'jalik subyektlarining faoliyatida ham buxgalteriya siyosatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Bu esa, korxonaning o'z faoliyat xususiyatlariiga asoslangan holda moliyaviy holatini xolis aks ettiruvchi siyosatni tanlash va qo'llashni asoslash zarurligini bildiradi (9, 119–123-betlar).

MDH mamlakatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasida "hisob siyosati" atamasi 1990-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. Ammo hozirgacha ham bu boradagi qarashlar yuzasidan iqtisodchi olimlar o'rtaida munozaralar davom etmoqda.

Rossiyada hisob siyosati muammolarini hal etishda L. Z. Shneydmanning qarashlari alohida o'r'in tutadi. U boshqa iqtisodchilardan farqli ravishda nafaqat korxona va tashkilotlarning hisob siyosatini, balki umum davlat hisob siyosatini ham tahlil qilib, uning barcha jihatlarini kompleks tarzda ko'rib chiqadi. Bunday yondashuv barcha darajadagi buxgalteriya hisobining metodologik va tashkiliy assoslarini yagona tizim sifatida o'rganish, hozirgi iqtisodiy rivojlanish bosqichini hisobga olgan holda buxgalteriya hisobini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi.

Biroq muallifning buxgalteriya hisobiga bergen ta'rifida ba'zi bahsli jihatlar mavjud. U hisob siyosatini "dastlabki kuzatish, statistik o'lchash, joriy guruhash va bu faktlarni yakuniy umumlashtirishni amalga oshirish usuli yoki tartibi" sifatida belgilaydi (10, 13-bet).



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan va tahlil etilgan qarashlar, fikrlar hamda yondashuvlarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Umuman olganda, buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi keng ko'lamli muammo bo'lib, buxgalteriya hisobi tizimining tarkibi va mazmuniga doir mutaxassislar qarashlari xilma-xil, ularning tahlil diapazoni esa kengdir. Xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning bu boradagi fikrlariga tayanadigan bo'lsak, buxgalteriya hisobi tizimining shakllanishi ko'proq uning mazmunidagi murakkablik bilan emas, balki qanday asoslar asosida shakllanayotganligi bilan belgilanadi.

Bu esa, o'z navbatida, buxgalteriya hisobi tizimiga axborot yondashuvi, bog'liqlik nazariyasi, kibernetik va tizimli yondashuvlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi sharoitda me'yor va namunaga aylangan buxgalteriya hisobi tizimining optimal tarkibiy qismlari aniq belgilanmagan. Shu sababli, tizimdagi bu muammoning yechimini topish dolzarb zaruratga aylangan.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi siyosatining tub mohiyati to'liq ochib berilmaganligi sababli, mayjud buxgalteriya hisobi amaliyoti bu siyosatning mohiyatini to'liq ifoda etmaydi. Buxgalteriya hisobidan chetda qolayotgan ayrim holatlar korxonadagi hisob siyosatini aniq aks ettirmayapti.

Shu bois, hisob siyosati, bizningcha, korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etishning joriy va strategik masalalarini qamrab olgan bo'lishi zarur.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi siyosati — "korxonada joriy etilgan buxgalteriya hisobining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlariga mos keladigan xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish uchun tanlab olinagan qoidalar, tartiblar, an'analar hamda o'ziga xos shakl va usullar majmuasidan iborat bo'lishi kerak", deb hisoblaymiz.

Bu yerda:

Tashkiliy jihat — buxgalteriya hisobining tuzilmasi, hisob shaklini tanlash, unga mos buxgalteriya schyotlar rejasini ishlab chiqish va ish jarayonining tartibini belgilashni o'z ichiga oladi.

Uslubiy jihat — asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar va xaratatlarni hisobga olish usullarini aniqlash, amortizatsiya ajratmalarini hisoblash, mulk va majburiyatlarni baholash, foydani hisoblash kabi metodlarni belgilashdan iborat.

Texnik jihat — axborotni qayta ishlashda qo'llaniladigan texnik vositalar va texnologiyalarni tanlash va ulardan foydalanish mezonlarini belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir qishloq xo'jaligi korxonasi o'z hisob siyosatini ishlab chiqishda hamda uni amalda qo'llashda umumqabul qilingan doimiylik prinsiplariga asoslanishi zarur. Bu prinsiplar rasmiy normativ hujjatlarda mustahkamlanishi lozim.

Hisob siyosatida o'tgan yilga nisbatan amalga oshirilgan o'zgarishlar korxonaning yillik hisobotini tuzishda e'tiborga olinishi va tegishli tarzda asoslab tushuntirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А. Абдуллаев. Вопросы информационного обеспечения управления сельскохозяйственным производством в условиях рыночной экономики. OmniScriptum S.R.L.Academic Publishing RU, Ламберт. Германия, 2021. 163 б.
2. Асборов Р.А. Оценка производственных запасов и исчисление себестоимости продукции в условиях рынка. Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий.- №11, 1992- с.34-35.
3. Башмачников В.Ф. Хозяйствующий крестьянин: Экономические условия формирования,- В кн.: Сельскохозяйственная практика. Противоречия перестройки.- М.: Агропромиздат, 1989.- с.43.
4. Белов Н.Г. Единая система учета в сельском хозяйстве.- М.: Статистика, 1975 с.23.
5. Бородкин А.С. Учет и анализ во вспомогательных цехах машиностроительных заводов,- М.: Машиностроение, 1973.- 152c.
6. Евстигнеев Е.Н. Применение теории массового обслуживания в бухгалтерском учете.- М.: Финансы и статистика, 1986.-96c.
7. Кузминский А.Н., Сопко В.В. Организация бухгалтерского учета и экономического анализа в промышленности.- М.: Финансы и статистика, 1984- 200c.
8. Палий В.Ф., Соколов Я.В. Теория бухгалтерского учета. М.: Финансы и статистика, 1984.-279c.
9. Белебеха И. А., Савлук П.Т. Бухгалтерский учет в сельскохозяйственных предприятиях.- К.: Выша школа, 1987.-277c.
10. Шнейдман Л.З. Учетная политика при переходе России к рыночной экономике: Автореф. дисс. д-ра экон. наук.-М., 1995.-38c.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100